



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

MAXTUMQULI IJODIDA SAFAR MOTIVI

San'at Sariyev

Urganch davlat universiteti, professori (DSc)

Sariyeva Gulnurabegim

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, talaba

Annotatsiya

Mazkur maqolada Maxtumquli Firog'iy ijodida safar mavzusi insonning hayot yo'li va ruhiy izlanishlarini ifoda etishi tahlil qilinadi. Shoir Xiva va Buxoro kabi yirik ilm markazlariga bilim izlab safar qilar ekan, bu yo'lda nafaqat jismoniy qiyinchiliklarga, balki yaqinlaridan uzoqlashish va oilaviy ayriliqlarga ham duch keladi. Agar "Alpomish" yoki "Go'ro'g'li" dostonlarida qahramonlik safarlari, asosan, tashqi dushmanga qarshi qaratilgan bo'lsa, Maxtumquli she'rlarida bu motiv shaxsiy kechinmalar va irfoniy izlanishlar darajasiga ko'tariladi. Uning ijodida safar tushunchasi insonning ma'naviy yuksalishiga va o'z nafsini tarbiyalashiga xizmat qiladi. Shoir uchun g'urbat (musofirlik) faqat o'z yurtidan uzoqda bo'lish emas, balki inson ruhining bu dunyodagi vaqtinchalik holati hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Maxtumquli, xalq dostonlari, safar motivi, folklorizm, tasavvuf, barmoq vazni, dostonchilik.

МОТИВ ПУТЕШЕСТВИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ МАХТУМКУЛИ

Санъат Сариев

Ургенчский государственный университет, профессор (DSc)

Сариева Гульнурабегим

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, студентка

Аннотация

В данной статье анализируется тема странствия в творчестве Махтумкули Фраги как выражение жизненного пути и духовных исканий человека. Отправляясь в поисках знаний в такие крупные центры науки, как Хива и Бухара, поэт сталкивается не только с физическими трудностями, но и с горечью разлуки с близкими и семьей. Если в таких эпосах, как "Алпамыш" или "Гороглы", героические походы в основном направлены против внешних врагов, то в поэзии Махтумкули этот мотив возносится до уровня глубоких личных переживаний и ирфонических (мистических) поисков. В его творчестве понятие странствия служит духовному возвышению и воспитанию человеческого эго (нафса). Для поэта "гурбат" (скитание на чужбине) – это не просто пребывание вдали от родины, а временное состояние человеческой души в этом бременном мире.

Ключевые слова: Махтумкули, народные дастаны, мотив странствия, фольклоризм, суфизм, пальцевый счет.

THE MOTIF OF JOURNEY IN THE WORKS OF MAKHTUMKULI

San'at Sariyev

Urgench State University, Professor (DSc)

Sariyeva Gulnurabegim

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Student

Abstract

This article analyzes the theme of journey in the works of Magtymguly Pyragy as a reflection of a person's life path and spiritual quest. While traveling to major centers of enlightenment like Khiva and Bukhara in search of knowledge, the poet encounters not only physical hardships but also the emotional pain of being away from his loved ones and family.

While the heroic journeys in epics like “Alpomish” or “Gorogly” are primarily directed against external enemies, in Magtymguly’s poetry, this motif rises to the level of personal inner experiences and mystical (gnostic) exploration. In his work, the concept of journey serves for spiritual elevation and the discipline of the soul (nafs). For the poet, “ghurbat” (wandering) is not merely being far from one’s homeland, but rather a representation of the human soul’s temporary existence in this world.

Keywords: Magtymguly, folk epics, journey motif, folklorism, Sufism, syllabic meter (barmaq), epic storytelling.

Maxtumquli Firog’iy ijodida safar motivi ham jismoniy, ham ma’naviy-irfoniy mohiyatga ega bo’lib, u shoir dunyoqarashining evolyutsiyasini ko’rsatib beruvchi asosiy unsurlardan biridir. U nafaqat turkman adabiyoti, balki butun turkiy xalqlar she’riyatida tasavvufiy va dunyoviy g’oyalarni uyg’unlashtirgan mutafakkirdir [1.240]. Maxtumquli ijodida “safari” tushunchasi ko’p qirrali bo’lib, u asosan uch yo’nalishda namoyon bo’ladi: real geografik sayohatlar, g’urbat va hijrat dardi hamda tasavvufiy “sayr-u suluk” — ko’ngil safari. Shoir she’riyatidagi safar motivini an’anaviy dostonchilik va klassik lirika kontekstida qiyosiy o’rganish zarurati bilan belgilanadi. Maxtumquli she’rlaridagi safar motivini xalq dostonlaridagi, masalan, “Alpomish”, “Go’ro’g’li” dostonlaridagi qahramonning safar oldi holati va maqsadlari [7.47] bilan qiyoslash, “safari”, “yo’l”, “karvon”, “manzil” tushunchalarining she’riy matndagi mantiqiy yuklamasini o’rganish, shoirning hayoti davomidagi real safarlari — Xiva, Buxoro, Afg’oniston tomonlarga qilgan sayohatlari va bu jarayonning uning lirik qahramoni ruhiyatiga ta’sirini o’rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maxtumquli ijodini o’rganishga bag’ishlangan ilmiy manbalar orasida Z. Abdunazarov va Q. Jumayev tadqiqotlari shoir poetikasining o’ziga xos jihatlarini yoritishda muhim o’rin tutadi. Shuningdek, M. Mullayev va I. Haqqul asarlarida Maxtumquli she’riyatining inson konsepsiyasi hamda irfoniy qatlamlari chuqur tahlil qilingan. Folklor va epik an’analarga oid qarashlar V. Jirmunskiy hamda J. Eshonqul ishlarida keng yoritilib, safar motivining ildizlarini aniqlashga xizmat qiladi. N. Komilovning tasavvufga oid tadqiqotlari esa shoir ijodidagi ma’naviy-ruhiy safar mohiyatini tushunishda nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy va tarixiy-adabiy metodlardan foydalanildi. Maxtumquli she’rlaridagi safar motivi xalq dostonlari va tasavvufiy qarashlar bilan solishtirib o’rganildi. Shuningdek, matn tahlili asosida safar tushunchasining badiiy va falsafiy talqini ochib berildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maxtumquli she’rlarini tahlil qilar ekanmiz, shoir she’rlarida safar motivi qator xususiyatlarga ega ekanligini ko’rishimiz mumkin. Jumladan:

Dostonchilik an’anasi bilan bog’liq safar motivi. Shoir xalq dostonlaridagi kabi safarni “sinov” va “kamolot” bosqichi sifatida tasvirlaydi. Biroq xalq dostonlarida safar ko’pincha tashqi maqsad — yor qidirish, yurtni ozod qilish uchun bo’lsa, Maxtumqulida u ko’proq ichki intilish, ya’ni haqiqatni izlash bilan bog’liq hisoblanadi [4.35].

Safari va g’urbat. Shoir she’rlarida safar ko’pincha ayriliq va musofirlik tuyg’ulari bilan egizak keladi [5.67]. Uning “Buxoro deb otlandim, yo’lda adashdim” kabi misralarida intilish va yetisholmaslik fojiasi aks etganligini ko’rish mumkin.

Irfoniy — tasavvufiy safari. Bu o’rinda shoirning “ko’ngil safari” haqidagi tushunchalariga e’tibor qaratiladi. Bu safari foniylilikdan boqiylikka, nafsdan ruhga tomon harakat ekanligini anglab yetishimiz darkor [10.56].

Maxtumquli ijodidagi safar motivini faqatgina geografik, hududiy ko’chish deb baholash uning qamrovini cheklab qo’yadi. Shoir barmaq vaznidagi sodda va ravon misralari orqali safarni

falsafiy tasavvur darajasiga ko'targan. Masalan, uning to'rtliklarida a-a-a-b qo'fiyalanish tizimi safar davomidagi ritmik harakatni va fikriy izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Maxtumquli she'riyatidagi safar motivi boshqa mumtoz shoirlar, masalan, Navoiy yoki Mashrab ijodi bilan solishtirilganda, Maxtumqulining safari ko'proq xalqona, hayotiy va ijtimoiy xarakterga ega. U o'z xalqining birligi yo'lida qilgan ma'naviy safarlarini "yo'lchi", ya'ni yo'l ko'rsatuvchi sifatida amalga oshiradi [11.80].

Maxtumquli she'riyatidagi safar motivi — bu insonning o'zligini anglash yo'lidagi uzluksiz harakatidir. Shoir ushbu motiv orqali ham mumtoz adabiyot an'alarini saqlab qolgan, ham xalq ijodiga xos bo'lgan xalqona soddalikni badiiy asarga olib kirgan.

Maxtumquli ijodidagi safar motivi bilan o'zbek xalq qahramonlik dostonlaridagi ("Alpomish", "Go'ro'g'li") safar tushunchasini qiyoslash mumtoz adabiyot va folklorning o'zaro sintezini anglashda muhim ahamiyatga ega [9.21]. Ushbu ikki yo'nalishda dastlab, asosan, safar oldi holati va maqsadlar mavjudligini qayd qilib o'tish joiz.

Safar oldi holati. Xalq dostonlari ("Alpomish", "Go'ro'g'li")da qahramon ko'pincha tush ko'rish, g'oyibona ishq yoki oilaviy majburiyat, ayriliq sabab safarga o'tlanadi [7.150]. Maxtumquli she'riyatida esa shoir ko'pincha ruhiy ehtiyoj, dunyo kezish istagi yoki taqdir taqozosi — hijrat bilan safarga chiqadi.

Ruhiy holat. Qahramon qat'iyatli bo'lib, u o'z kuchiga va homiylariga — Xizir, Chiltonlarga tayanadi. Safar — bu mardlik maydoni. Maxtumqulida esa safar oldi holati ko'pincha iztirob, pushaymonlik yoki g'ariblik bilan yo'g'rilgan. Yo'lga chiqishdan oldin ilohiy madad so'rash ustunlik qiladi.

Diniy-mifologik ta'sir. Xalq dostonlarida safar oldidan "ot egarlash", duo olish va "ko'kragiga urib" ahd qilish kabi epik an'alar ustun. Maxtumqulida safar — bu "nafs-u havo"dan qochish va "haqiqat manzili"ga intilishdir. Uning she'rlarida yo'lga chiqish "karvon" va "umr beqarorligi" bilan bog'lanadi [6.53].

Safar maqsadlari. Safarning xususiyatlaridan biri safar maqsadi bo'lib, xalq dostonlariga razm solsak, safardan maqsad sifatida tashqi g'alaba va ijtimoiy burch birinchi o'ringa qo'yiladi. "Alpomish" dostonida Alpomishning safaridan maqsad yorni — Barchinni olib kelish va qabilaning nomusini tiklashdir. Ko'rinadiki, bu ijtimoiy va shaxsiy maqsad, g'alaba safaridir. "Go'ro'g'li" dostonida qahramonning safaridan maqsad ko'pincha qahramonlik ko'rsatish, mamlakat sarhadlarini kengaytirish yoki safdoshlar — Ravshanbek, Avazxonni qidirish hamda ularni asirlik yoki vaziyatdan qutqarish bilan bog'liq [9.54]. Asosiy maqsad — adolat o'rnatish.

Maxtumquli she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, shoir ijodida, asosan, ichki kamolot va irfoniyl izlanish safarning asosiy maqsadlaridan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, ma'rifat izlashni, ya'ni Maxtumqulining "Buxoro deb otlandim, yo'lida adashdim" kabi misralarida ilm va ma'rifat maskanlariga — Xiva, Buxoroga intilishni asosiy maqsad sifatida ko'rishimiz mumkin.

Xalq dostonlari qahramonlaridan farqli o'laroq, Maxtumquli ko'pincha "elidan ayrilgan g'arib" sifatida safar qiladi. Uning maqsadi ba'zan shunchaki o'z dardiga darmon topish yoki xalqning holini ko'rishdir. Shoir uchun safar — bu dunyoning o'tkinchiligini anglash. U dostonlardagi kabi jismoniy dushmanni yengish uchun emas, balki o'zligini, ya'ni nafsini yengish va Allohga yaqinlashish uchun yo'lga chiqadi.

Har ikki holatda ham safar "sinov" vazifasini o'taydi. Safarga chiqmagan qahramon yoki shoir komillik darajasiga yeta olmaydi. Har ikki yo'nalishda ham "Xizir" obrazining yo'l ko'rsatuvchi sifatida ishtirok etishi tasavvufiy va folkloriy ildizlarning bir ekanligini ko'rsatadi.

Dostonlarda safar "kelish", ya'ni g'alaba bilan qaytish bilan yakunlansa, Maxtumqulida safar ko'pincha "ketish" — bu dunyodan u dunyoga, foniylkdan boqiylikka o'tish va abadiy sog'inch bilan ifodalanadi.

Maxtumqulining hayot yo'li shunchaki makon va zamon nuqtalarini birlashtiruvchi

masofalar emas, balki shoir dunyoqarashini shakllantirgan ulkan bir ma'naviy maktabdir. Uning Xiva, Buxoro, Afg'oniston va Hindiston kabi o'lkalarga qilgan safarlari shoir ruhiyatida chuqur iz qoldirgan.

Maxtumquli ijodiga chuqurroq razm solinsa, ushbu hayotiy, hududiy, haqqoniy safarlarning shoir ijodidagi badiiy va ruhiy in'ikosi aks etganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Shoir avvalo "ilm safari"ga chiqadi va Xiva hamda Buxoro kabi ziyo va ma'rifat maskanlariga safar qiladi. Maxtumqulining Xivadagi "Sherg'ozixon" va Buxorodagi "Ko'kaldosh" madrasalarida tahsil olishi uning lirik qahramonini "darveshona" va "olimona" qiyofaga kiritdi. Shoir o'zini "talaba" va "izlanuvchi" sifatida his etadi. Uning she'rlarida ilmga bo'lgan tashnalik, kitob va qalamga ehtirom ustunlik qiladi. Maxtumqulining "Sherg'ozining maskanida" misralarida olingan ziyo uchun shukronalik seziladi. Bu yerda lirik qahramon ma'rifatli inson timsolidir.

Maxtumqulining turli ijtimoiy-siyosiy sabablar yoki oilaviy ayriliqlar tufayli qilgan safarlari uning she'riyatiga "g'urbat" va "hijrat" mavzularini olib kirdi. Begona ellarda yurish shoirning o'z eliga, o'z xalqiga bo'lgan muhabbatini yanada alangalantirdi. Safardagi qiyinchiliklar lirik qahramonni yanada sabrli, chidamli va dunyoning foniyiligini anglagan zotga aylantirdi. Uning Afg'oniston hududlariga qilgan safarlari tasvirida lirik qahramon o'zini "elidan ayrilgan g'arib" sifatida his etadi. Bu davr she'rlarida tushkunlik emas, balki Vatan va millat birligi sog'inchi — patriotizm kuchayadi.

Maxtumquli o'zining turli o'lkalarga safarlari davomida faqat yurtlar yoki madrasalarni emas, balki oddiy xalq hayotini ham kuzatgan. Hududiy-jismoniy safarlar uning dunyoqarashini kengaytirdi. Shoir turli millat vakillari, turli urf-odatlar va siyosiy tuzumlarni ko'rdi. Bu esa lirik qahramonning universal mutafakkir darajasiga ko'tarilishiga xizmat qildi.

Ijodkorning she'rlarida turli xalqlar, shaharlar va tog'lar, masalan, Kavkaz, Afg'on tog'lari nomi tilga olinishi shoirning dunyoni anglash darajasi oshib borganini ko'rsatadi. U endi faqat bir qabila shoiri emas, balki insoniyat dardini kuylaydigan faylasuf shoirga aylanadi. Safarlar davomida ko'rilgan qiyinchiliklar shoirni "taqdirni anglash" va "taqdir yozig'ini tushunish"ga yetaklagan. Boshqa ellardagi adolat yoki adolatsizlikni ko'rish uning lirik qahramonini jasur, haqiqatgo'y va zolimlarga qarshi so'z aytuvchi isyonkor shaxs qilib tarbiyalagan. Tarqoqlikdan azob chekayotgan xalqini birlashtirish g'oyasi aynan safarlar davomidagi xulosalari natijasida pishib yetilgan. Maxtumquli uchun har bir safar yangi bir ilm va yangi bir iztirob edi. Uning lirik qahramoni ushbu safarlar natijasida "g'ariblikdan komillikka" qarab kamol topgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxtumquli. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. — М.: Наука, 2000.
3. Пропп В. Я. Исторические корни волшебной сказки. — М.: Лабиринт, 2000.
4. Abdunazarov Z. Maxtumquli she'riyatida poetik mahorat. — Toshkent: Fan, 1988.
5. Jumayev Q. Maxtumquli va o'zbek adabiyoti. — Toshkent: Fan, 1984.
6. Mullayev M. Maxtumquli ijodida inson konsepsiyasi. — Ashxobod: Ylym, 1990.
7. Жирмунский В. М. Тюркский героический эпос. — Л.: Наука, 1974.
8. Sul'tonov I. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005.
9. Eshonqul J. Folklorda obraz va motiv evolyutsiyasi. — Toshkent: Fan, 2008.
10. Komilov N. Tasavvuf. — Toshkent: Movarounnahr, 2009.
11. Haqqul I. Irfan va idrok. — Toshkent: Ma'naviyat, 1998.